

**"HOZIRGI YOSHLAR O'RTASIDAGI VIRTUALLASHUV"**

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti*  
*Xorijiy tili va adabiyoti yo'nalishi 2 -kurs 4 -21- guruh talabasi*  
**Haydarova Zarina**

**Anotatsiya:** Bugungi kunda atrofimizdagi jamiki omillar texnologiyalarga bog'lanib bo'ldi. Ta'lim tizimi , korxonalar, eksport ,import ishlari, ishlab chiqarish deyarli ,barcha sohalar virtual (noreal) boshqarila boshlandi. Jumladan , birgina telefon orqali kun davomida talaygina ishlarimiz bajariladi. Albatta bu hammasi yaxshilikka, ammo virtuallashuv yoshlarimiz hayotida shu darajada jadallashib boryaptiki ayrim insonlar bu yo'ldan yomon maqsadlarda foydalanishmoqda. Ushbu maqolada yoshlar o'rtasida ayniqsa maktab o'quvchilari o'rtasida real hayotdan uzoqlashish sabablari va ularning oqibatlari virtuallikni mukkasidan ketish natijasida ota- ona kelajagi , hamda Vatan kelajagi uchun salbiy oqibatlari haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** Platforma, real /noreal hayot, texnologik tizim, konseptsiya, parollash, globallashuv.

**XXI ASR**

Axborot texnologiyalari asri. Hozirgi globallashib borayotgan zamonimizda internetlashgan texnologiyalarga talab katta. Biz hech ikkilanmasdan ayta olishimiz mumkinki internet tarmog'i dunyo aholisining hayotini barcha jabhada qamrab oldi. Dastlab XV asrdan to XX asrgacha nazar soladigan bo'lsak ushbu davr juda katta o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa insonlar ongidagi o'sish va fikirlashni o'zgarishi bu albatta juda katta voqea. Eng afsuslanadigan jihati Yevropa madaniyatining virtual platformalar orqali bizning yoshlarimiz dunyo qarashiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini inobatga olmasdan ilojimiz yoq. Shu yo'sinda virtuallashuv madaniyatga, do'stona a'loqalarga qaysidir tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatsa, o'zining salbiy ta'sirini ham ko'rsatmasdan qolmaydi.

Birinchi navbatda virtuallashuv nima, uning kelib chiqishi qanaqa bo'lgan , bunga ehtiyoj nega kerak? Shu kabi savollarga javob topsak. "Virtual" so'zi ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib "virtually" "haqiqiy "degan ma'noni anglatadi. Ushbu atama birinchi marotaba AQSh olimi Jaron Lanier 1989-yilda hozirda mashhur bo'lgan „virtual“ atamasini taklif qildi. Ushbu atama barcha davlatlarga tarqagandan so'ng insonlar o'zlarini hayotlariga targ'ib qila boshlashdi. Virtuallashuvni maqsadi nima? Bu avvalambor insonlarni qiyinchiligini yengillatish, uzoqni yaqin qilish va ma'lumotlar ba'zasini kengaytirish.

Virtuallik foydalanuvchiga haqiqiy dunyodan uzoqlashish va bir tomonlama kayfiyatni ko'tarish va tushirish tuyg'usini berishga imkon beradigan texnologik tizimga ega. Ushbu illuziya tomonidan yaratilgan modellar tufayli yuzaga keladi kompyuter foydalanuvchi maxsus dubulg'a orqali o'ylab topadi. Virtual haqiqat video o'yinlarda qo'llanilishi uchun tug'ilgan bo'lsa-da, hozirda u tibbiyot va transport kabi

sohalarda foydalidir. Hozirgi paytda kontseptsiya bilan bog'liq aniq yoki mavjud bo'lgan narsaga, haqiqiy yoki jismoniyga qarama-qarshi bo'lgan narsa . Ushbu atama sohasida juda keng tarqalgan kompyuter fanlari va texnologiya raqamli tizimlar yoki formatlardan foydalangan holda qurilgan voqelikka murojaat qilish. Qisqa tavsifsiflab o'tadigan bo'lsak virtual dunyo kompyuter simulyatsiyasi muhit, bu shaxsiy avatar yaratishi mumkin bo'lgan ko'plab foydalanuvchilar tomonidan to'ldirilishi mumkin, shuningdek bir vaqtning o'zida va mustaqil ravishda virtual dunyoni o'rganib , uning faoliyatida ishtirok etish va boshqalar bilan muloqot qilish huquqiga ega.

Virtuallikni omillari nimalarda namoyon bo'lishi mumkin;

- Yevropa madaniyatiga odatlanib qolish va uni targ'ib qilish
- Kitobdan va madaniyatdan uzoqlashish
- Vatan oldidagi burchlarini unutish
- Bo'sh vaqtlarini besamar o'tkazish
- Insoniylik hislatlaridan cheklanish
- Ota onaga va yaqinlariga bo'lgan mehir- muhabbatni sustlashishi
- Doim buzg'unchi g'oyalarni yoqlashi.

kabi tushunchalar bilan.

Ushbu muammoni o'zimni kuzatishlarim davomida asosan maktab o'quvchilarining o'smir yigit qizlari nazariyasi bilan mavzuni kengroq yoritib bermoqchiman. Zero maktab davridan to'g'ri shakllantirilgan novda albatta kelajakda o'zining shirin mevalari bilan ommani huzurlantirmasdan qolmaydi. Yuqorida biz aynan virtuellashuv haqida tushunchaga ega bo'ldik endi bu muhim vositani maktabning o'smir o'quvchilari misolida mavzuni yoritib bermoqchiman. Barchamizga ma'lumki hozirgi kunda Oliy Ta'lim tizimi kundan kunga rivojlanib bormoqda va yangicha uslublar yangicha metodlar qo'llanmoqda. Biz 4+2 tizimi bo'yicha 4 kun insitutda Ta'lim olamiz va 2 kun maktablarda amaliyot o'taymiz. Amalyot o'tayotgan maktabimiz ayrim o'quvchilarida kuzatamanki telefonga turli xil gadjetlarga mukkasidan ketgani va ularga bog'lanib qolganligi sababli noxush vaziyatlar kuzatilayotganligini guvohi bo'lyapmiz. Ayniqsa bolalarda virtual o'yinlarga bog'lanib qolish, vaqtini besamar har xil saytlarda o'tkazishi insonni achintiradi albatta. Hattoki eng kichkina maktab o'quvchilari ham bugungi kunda "PabGI" "Contor" va shunga o'xshash boshqa turdagi bolalarni miyyasini parollab qo'yadigan o'yinlarni o'ynashi bu o'zining , kelajagining va ota onasining ham kelajagi uchun yomon oqibatlarga olib kelishi sir emas.

Bunda eng birinchi navbatda ota- onalarning e'tiborsizligi sababi katta deb o'ylayman. Bolalariga yoshligidan boshlab tinch qilish uchun bola qo'liga telefon tutib tinchlantirishi ularni xafa va tushkunlikdan chiqaruvchi birdan bir vosita shu ekanligini o'zimiz o'rgatyabmiz. Agar farzandlari taqdiriga befarq bo'lishmasa ular telefonlarida nimalarni tomosha qilishyapti ,nimalarni yuklab olishgan ong-u shuurlarini nimalar egallab olgan , o'ynayotgan o'yinlari yosh doiralari to'g'ri keladimi , fikirlashlariga salbiy ta'sir o'tkazmaydimi? Mana shu vaziyatlarni albatta

ota - ona o'z qo'liga olishi kerak. Birgina "PabGI" o'yini misolida olsak deyarli yoshlarning 80% shu o'yinni o'ynab ko'rgan. Bu foizlar ichida Boshlang'ich maktab o'quvchilari ham borligi yaxshi holat emas albatta.

Virtuallashuvni batamom yo'qotish bu juda ham mushkul vaziyat ammo foydali bo'lishiga ishongan holda o'z fikrimni bermoqchiman. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganlaridek kelajagimiz yoshlar qo'lida. Yoshlarimiz ta'limiga juda ham kop shart sharoitlar yaratilmoqda , ammo tarbiyadan sal chetda qolayotgandek nazarimda. Zero Abdulla Avloniy aytganlaridek "Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir." Men maktablarda o'tkaziladigan Tarbiyaviy soat darslarida o'quvchilar bilan chuqurroq ishlash, xo'ja ko'rsinga davomat va forma bilan cheklanib qolmasdan bolalarni maktab hududida boshqa o'quvchilarni chalg'itmasligi uchun telefonlaridan foydalanishga ruxsat bermaslik kerak deb hisoblayman. Bundan tashqari yoshlarni yosh murg'ak ongiga telefonga ,uning o'yinlariga mukkasidan ketishning salbiy oqibatlarini isbotlab , tushuntirib, ko'rsatib berish lozim. Bu qanday amalga oshiriladi , birinchi navbatda maktablarga ,, Virtuallik haqida ta'lim,, darsligini kiritish bundan tashqari maktabning o'smir bolalariga va ayrim shu telefonga berilib ketgan shubha ostidagi bolalarga vidioroliklar va turli xil rasmlar orqali ularni fikrini yaxshi tomonga o'zgartirishning imkoniyati bor. So'zimni isboti sifatida aytmoqchimanki, hayotimda ko'rganmanki mana shu telefon o'yinlarini o'ynash orqali qo'li qaltirab qoladigan bo'lib qolgan yoshlarni. Hattoki o'yin ta'siriga tushib qolib o'zini tana a'zolarini jarohatlaydigan , o'zini o'ldirishgacha olib boradigan o'smirlarni. Virtual o'yinlar ta'siri natijasini albatta o'smirlarga ko'rsatishimiz , ogohlikga chaqirishimiz shart va zarur. Bu mas'uliyat birinchi navbatda ota- onalarga , ikkinchi navbatda maktab o'qituvchilariga yukalatiladi.

Fikrimni xulosalash niyyatida shuni aytmoqchimanki Buyuk mutafakkirlarimizdan biri Abdulla Avloniy shunday deganlar:

"Tug`ib tashlash bilan bo`lmas bola, bo`lg`ay balo sizga, Vujudi tarbiyat topsa bo`lur ul rahnamo sizga Temirchining bolasi tarbiyat topsa, bo`lur olim, Buzilsa xulqi, Luqmon o`g`li bo`lsa, bo`lg`usi zolim" .

Ota- bobolarimizni bizga go'daklik chog'imizdan bekorga o'rnak qilishmaydi. Ular haqiqatdan ham hayotlarida qanchadan qancha qiyinchiliklarga qaramasdan ilm yo'lini tanlashgan. Haqiqatdanda ularning hayot yo'llari yozgan asarlari bizga o'rnak bo'lsa arzigulik. Zero Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlikdir. Darhaqiqat , mana shunday globallashuv zamonida bizdan juda kuchli sergaklik va hushyorlik talab qilinadi. Hech bo'lmasa haftada bir marotaba farzandlarimizni nimalar bilan shug'ullanayotganiga befarq bo'lmasak ularni olib boradigan xavfli yo'llardan qutqargan bo'lar edik. So'zimni Abdulla Avloniyning bir hikmatli gaplari bilan yakunlamoqchimam ,,Kerak tarbiyat yoshlikdan kerak, Ulug' bo'lsa lozim kelur g'am yemak".

## REFERENCE:

1. "Abdulla Avloniy Hikmatlar hazinasi" asari.
2. <https://infocom.uz/>
3. <https://uz.erf-est.org/>
4. Авезова, Д. (2022). Инсоният тарихида БУЮК ЛЕВ ТОЛСТОЙ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 17(17). извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/7234](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7234)
5. Авезова, Д. (2022). статья Методика преподавания языка иностранным студентам. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 25(25).
6. Abdurasulovna, B. M. (2022). Clinical Features of Rheumatoid Arthritis in Patients at the Age of Older 60 Years Old. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(6), 650-655.
7. Авезова, Д. (2022). МОРФОНОЛОГИЧЕСКИЕ ЯВЛЕНИЯ В РУССКОМ СЛОВООБАЗОВАНИИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).
8. Авезова, Д. (2022). КАКИЕ ГРАММАТИЧЕСКИЕ КАТЕГОРИИ ЯВЛЯЮТСЯ ОБЩИМИ ДЛЯ ЧАСТЕЙ РЕЧИ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ?. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).
9. Авезова, Д. (2022). ОСНОВНЫЕ РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ СТРУКТУРОЙ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО СЛОВА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).
10. Farkhodovna, K. F., Rakhmatulloevna, N. U., & Abdurasulovna, B. M. (2022). ETIOLOGY OF CHRONIC RHINOSINUSITIS AND EFFECTIVENESS OF ETIOTROPIC TREATMENT METHODS (LITERATURE REVIEW). Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4), 377-381.
11. Авезова, Д. (2022). статья Составные части и их выражение в творчестве Абдуллы Каххора. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 22(22).
12. Авезова, Д. (2022). Spirituality Маънавият инсонни комилликка етаклайди. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 22(22).
13. Alimov, S. S., & Yusupova, O. M. (2022). LINGUOCULTURAL FEATURES OF BORROWINGS FROM ENGLISH TO UZBEK LANGUAGE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 1-4.
14. Mamadjanova, M. U. (2022). О 'ЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА ЭПИТЕТНИНГ ЧОГ 'ИШТИРМА ТАДҚИҚИ. ANTONAMAZIYA ЭПИТЕТЛАР. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(5), 110-115.